QASHQADARYO VILOYATI
CHIROQCHI TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

181200, Chiroqchi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 19-uy. Faks: (+99875)562-18-55, t.chiroqchi@exat.uz

2022 - yil 28 - sentabr 440-4-66-Q/22 Chiroqchi tuman hokimligi

Chiroqchi tuman hududida umumfoydalanishagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish hamda avtomobil yo‘llarida tirbandlikni bartaraf etish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati Qoidalari” to‘g’risadagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan talablarga muvofiq, Chiroqchi tuman hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalari oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Chiroqchi tuman hududida umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish hamda avtomobil yo‘llarida tirbandlikni oldini olish maqsadida tuman hududidagi avtomobil yo‘llarning qatnov qismida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Chiroqchi tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Beshimqulov), tuman Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (O.Jovliyev), tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (J.Avlayorov), tuman hududida umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish hamda avtomobil yo‘llarida tirbandlikni bartaraf etish maqsadida, yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (S.Rayimqulov), mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilab qo‘yilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari B.Norqobilov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **N.Erkayev**

Chiroqchi tuman hokimining
2022 yil 28 sentabrdagi
440-4-66-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish hamda avtomobil yo‘llarida tirbandlikni bartaraf etish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1	Chiroqchi dehqon (oziq-ovqat) bozori” MChJ ro‘parasidagi avtomobil yo‘li	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”
2	4P84 “Yakkabog‘-Chiroqchi-Yettitom-Sho‘rbozor” avtomobil yo‘lining 26-27 km. Davlat xavfsizlik xizmati tuman bo‘limi ma’muriy binosidan tuman prokuraturasi ma’muriy binosigacha bo‘lgan masofa	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”
3	4P84 “Yakkabog‘-Chiroqchi-Yettitom-Sho‘rbozor” avtomobil yo‘lining 29 km. tuman tibbiyot birlashmasi binosi oldida	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”
4	4P79 “Qarshi – Chim – Chiroqchi – Shaxrisabz” avtomobil yo‘lining 79-81 km. oralig‘i tuman FHDY bo‘limi ma’muriy binosidan tuman IIB ma’muriy binosigacha bo‘lgan masofa	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”